

TURIZM VA REKREATSIYANI RIVOJLANTIRISHNING MILLIY IQTISODIYOT TARAQQIYOTIDAGI AHAMIYATI.

Allanov Shuxrat Qilichovich

Termiz davlat pedagogika instituti Tabiiy va aniq fanlar fakulteti

Texnologiya va Geografiya kafedrası o'qituvchisi

Jo'raniyozova Feruza Abdulqosim qizi

Termiz davlat pedagogika instituti Tabiiy va aniq fanlar fakulteti

Geografiya ta'lim yo'nalishining 2 kurs talabasi

Allanov Shukhrat

Termez State Pedagogical Institute Faculty of natural and Exact Sciences Teacher of
the Department of technology and geography

Juraniyozova Feruza

Termez State Pedagogical Institute Faculty of natural and Exact Sciences 2-year
student of the geography education direction

Аннотация. Ushbu ilmiy ishda turizm va rekreatsiyani rivojlantirishning milliy iqtisodiyot taraqqiyotidagi o'рни va ahamiyati yoritilgan. Turizm sohasi zamonaviy iqtisodiy taraqqiyotning muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, nafaqat daromad manbai, balki yangi ish o'rinlari yaratish, hududiy infratuzilmani rivojlantirish va madaniy almashinuvni kengaytirishda ham katta rol o'ynaydi. Ishda O'zbekiston sharoitida rekreatsion resurslardan samarali foydalanish, turistik hududlarning rivojlanishi va davlat tomonidan ko'rsatilayotgan qo'llab-quvvatlov choralarining iqtisodiy samaradorligi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar. Turizm, rekreatsiya, logistika, ekskursiya, Turizm assambleyasi kollegial-konsultativ kengashi, turizmni kompleks rivojlantirish, milliy turistik mahsulotlar.

ЗНАЧЕНИЕ РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА И ОТДЫХА В РАЗВИТИИ НАРОДНОГО ХОЗЯЙСТВА.

Аннотация. В данной научной работе освещается роль и значение развития туризма и отдыха в развитии народного хозяйства. Сфера туризма – одна из важнейших отраслей современного экономического развития, являющаяся не только источником дохода, но и играющая большую роль в создании новых рабочих мест, развитии территориальной инфраструктуры, расширении культурного обмена. В работе проанализирована экономическая эффективность эффективного использования рекреационных ресурсов, развития туристских территорий и мер государственной поддержки в условиях Узбекистана.

Ключевые слова. Туризм, отдых, логистика, экскурсии, коллегиально-консультативный совет Ассамблеи туризма, комплексное развитие туризма, национальные туристские продукты.

THE IMPORTANCE OF THE DEVELOPMENT OF TOURISM AND RECREATION IN THE DEVELOPMENT OF THE NATIONAL ECONOMY.

Annotation. This scientific work highlights the role and importance of Tourism and Recreation Development in the development of the national economy. The tourism sector is one of the important sectors of modern economic development and plays a large role not only in the source of income, but also in the creation of new jobs, the development of Territorial Infrastructure and the expansion of cultural exchange. The work analyzes the effective use of recreational resources in the conditions of Uzbekistan, the development of tourist areas and the economic efficiency of the support measures provided by the state.

Keywords. Tourism, recreation, logistics, excursion, kollegial-Consultative Council of the tourism Assembly, complex development of Tourism, national tourist products.

Kirish. O‘zbekistonning iqtisodiy qudratini yanada yuksaltirish yo‘lidagi asosiy maqsadlardan biri milliy iqtisodiyotining barqaror va uzoq muddatli rivojlanishini ta’minlashdir. Barqaror iqtisodiyot esa infalyatsiya va ishsizlikni kamaytirib, aholi daromadlari va turmush darajasi oshishiga xizmat qiladi. Shundan

kelib chiqib, turizm va rekreatsiya sohasini rivojlantirish masalasini ustivor yoʻnalishlardan biri sifatida qaralib, bu borada davlatimiz muhim taklif va tashabbuslarini ilgari surmoqda va qoʻllab quvatlamoqda.

Asosiy qism. Hukumatimiz turizm va rekreatsiyasi xalqimizning uzoq asrlar davomida yaratilgan va asrab kelinayotgan tarixiy-madaniy merosi bilan chet elliklarni tanishtirish orqali xalqimizning tarixiy taraqqiyoti, madaniyati, sanʼati, qadriyatlari haqida maʼlumotlar berish vositasi ekanini alohida taʼkidlab, soha rivojiga qaratilgan xavfsiz turizmni rivojlantirish, startup loyihalarni amalga oshirish yoʻnalishlarida qator taklif va tashabbuslarni oʻrtaga tashlamoqda.

Turizm va rekreatsiya rivojlanishi tadbirkorlik muhitini yaxshilashga hamda xususiy sektorda yangi loyihalarni ishga tushirishga imkoniyat yaratadi. Bu esa yangi ish oʻrinlari yaratish va bandlikni oshirishga olib keladi, mehmonxona, restoran, transport, logistika, ekskursiya va boshqa xizmatlar sohalarida koʻplab ish oʻrinlari yaratadi.

Xalqaro fuqaro aviatsiyasi tashkiloti (bundan keyin ICAO deb yuritiladi) maʼlumotiga koʻra, har 8-10 ish oʻrnining bittasi ushbu sohaga tegishli boʻlmoqda. 2023 yilda mamlakatimizda umumiy qiymati 9,5 trillion soʻmlik 508 ta loyiha amalga oshirilganining hisobiga jami 9492 ta yangi ish oʻrni yaratildi. 183 ta yangi mehmonxona va 232 ta xostel faoliyati yoʻlga qoʻyilib, jami joylashtirish vositalarining soni 5526 taga etdi. Sayyoxatlar, rekreantlar uchun xizmat koʻrsatuvchi 810 ta yangi turistik tashkilot va turagentlar faoliyatining yoʻlga qoʻyilishi natijasida ular soni 2649 taga etdi.

Sayyoxlar rekreantlar uchun xizmat koʻrsatuvchi 810 ta yangi turistik tashkilot va turagentlar faoliyatining yoʻlga qoʻyilishi natijasida ular soni 2649 taga etdi.

Shu bois, turizmni va rekreatsiya sohasini rivojlantirish masalasi ham asosiy ishlardan biri boʻlib, u mamlakatning milliy madaniy meros obʼektlarini muhofaza etish, tarixiy obidalarni asrash, milliy madaniyatni keng targʻib qilish kabi maqsadlariga ham bevosita mos keladi.

To'g'ri, so'ngi yillarda mamlakatimizda turizm va rekreatsiyani rivojlantirish, sayyohlarni kehg jalb etish, turizm infratuzilmasini yaxshilash borasida salmoqli ishlar qilindi.

Jumladan, xorijiy sayyohlar va rekreantlarni jalb qilish uchun turizm tashkilotlarini aylanma malag' bilan ta'minlash maqsadida Tiklanish taraqqiyot jamg'armasidan 50 million dollar qiymatda kredit ajratilmoqda. Salohiyati yuqori bo'lgan joylarda master-rejalar asosida turizm va sog'lamlashtirish maskanlari barpo etilib, ular infratuzilmasini yaxshilash uchun joriy yilda respublika byudjetidan 100 milliard so'm yo'naltirilishi, ularning har biriga 50 million dollar miqdorda infetitsiya jalb qilinishi belgilangan. Shuningdek, bu borada qator normative-huquqiy xujjatlar qabul qilindi, institutsional islohotlar amalga oshirildi. Lekin mamlakatimizning turizm salohiyati bundan-da katta imkoniyatlarni namayon qilgani holda iqtisodiyotda turizmning ulushini yanada oshirish uchun barcha sharoitlar mavjuddir.

O'zbekistonning 2024 yilda sayyohat qilish uchun eng yaxshi davlatlar ro'yxatiga kiritilishi va World of Statistes tomonidan bu haqda e'lon qilinishi mamlakatimizga xorijlik sayyohlar tashrifi hamda sayyohlik eksporti hajmi ortishiga xizmat qiladi.

Bu esa yurtimizda turizm va rekreatsiya sohasini yangi bosqichga olib chiqishni kun tartibiga qo'yib, yangi g'oya va tashabbuslarni talab etadi. Ayni shu jihatdan mazkur masalaga alohida yo'nalish sifatida qarab, taklif va tashabbuslarni ilgari surmoqda va qo'llab quvatlanmoda.

Xususan, turizm sohasi umummilliy harakatga aylantirish, "ochiq eshiklar" siyosatini yuritish, vizasiz kirish tizimini kengaytirish kabi tashabbuslar o'z vaqtida ko'tarilgan hisoblanadi. Jumladan, vizasiz kirish tizimi doirasida amalga oshirilgan so'nggi islohatlar natijasida 2017 yili mamlakatimizga 20 million 700 ming, 2015 yilda 5 million 300 mingdan ortiq sayyoh tashrif buyurgan bo'lsa, 2023 yilga kelib, 6 million 626 ming nafarga etdi. Birgina 2024 yilning yanvar-iyul oylarida hammasi bo'lib 4 million 242,9 ming nafar chet el fuqarosi sayyohlik maqsadlarida

O'zbekistonga kelgan. Bu ko'rsatgich 2023 yilning mos davri bilan solishtirilganda 562,5 ming nafarga yoki 15,3 foiz oshgan.

Mazkur raqamlarning o'zi ham mamlakatimizda "ochiq eshiklar" siyosati, vizasiz kirish tizimi borasida bildirilgan takliflarning hayyotiligini ko'rsatadi.

Shu sababli bu boradagi takliflarni hayotga tatbiq etishni kechiktirmaslik nafaqat iqtisodiy manfaatlarga, balki ustivorlik kasb etadigan milliy qadriyatlar, boy tariximiz va milliy madaniyatimizni jahon xalqlariga keng targ'ib qilish imkonini beradi.

Bundan tashqari, Turizm assambleyasi kollegial-konsultativ kehgashi faoliyatini tashkil etish, turizmni kompleks rivojlantirish bo'yicha 2030 yilgacha bo'lgan strategiyani ishlab chiqish, milliy turistik mahsulotlar reklamasi – targeting strategiyasidan, targ'ibotda ijtimoiy mediya imkoniyatlaridan foydalanish kabi tashabbuslarni ijobiy baholash mumkin. Bu g'yalar mamlakatda mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish orqali ham ma'naviy, ham iqtisodiy jihatdan yanada yuksalish imkonini beradi.

Albatta, boy obidalarga, turizm va rekreatsiya imkoniyatlariga ega bo'lish bir yutuq bo'lsa, ularni keng jamoatchilik va dunyo hamjamiyatiga, sodda aytsak, sayyohatchilarga tanitish va targ'ib qilish alohida vazifadir. Shu sababli yuqorida qayd etilgan milliy turistik mahsulotlar reklamasi – targeting strategiyasidan foydalanish, targ'ibotni kuchaytirishda bugungi kunda asosiy axborot va targ'ibot manbai vositasi bo'lgan ijtimoiy mediya imkoniyatlaridan keng foydalanish tashabbusi juda muhimdir.

Xulosa. Umuman olganda, iqtisodiy taraqqiyot, bu borada turizm va rekreatsiya sohasini yanada rivojlantirish mamlakatning kelajagi uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi. Milliy iqtisodiyot, xususan, turizm va rekreatsiya sohasi rivojlanishining hozirgi holati hamda tizimdagi ijobiy tendentsiyalar bu sohani yanada isloh qilish O'zbekiston iqtisodiy taraqqiyotining omili hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Surxondaryo viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotlari.
2. Қаюмов А.А., Якубов Ў.Ш., ва бошқалар Аҳоли географияси ва демография асослари. Тошкент, 2011.- 154 б.
3. Якубов Ў.Ш., Утепова Г.Б. Аҳоли географияси ва демография асослари. Тошкент, 2011.- 72 б.
4. Якубов Ў.Ш., Ваҳобов Х. Рекреацион география асослари. Тошкент, 2012. – 142 б.
5. Солиев А.С., Усмонов М.Р. Туризм географияси. Самарқанд, 2005 – 130 б.